



## ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-mart

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0 foizga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 7,7 foizni tashkil etdi. Avtotransport vositalari savdosi, iste'mol tovarlari, va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 36,7 foizga ko'payishiga olib keldi.

### 2018 yil yanvar-mart oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (29,1 foiz), Beruniy (10,3 foiz), Turtkul (9,2 foiz), Xujayli (8,9 foiz) va Amudaryo (6,8 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1,6 foizga oshib, 0,5 mln. so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-mart oylarida 0,4 mln. so'mni tashkil qilgan edi).



O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Qorauzak tumani (0,7 mln. so'm), Xujayli tumani (0,7 mln. so'm) va Taxtakupir tumanida (0,7 mln. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 19,1 trln. so'mni tashkil etdi va 1,1 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,0 foizni tashkil etdi.

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>		
Respublikasi	515,4	101,6
Amudaryo	335,6	99,2
Beruniy	530,9	98,2
Qonlikul	391,6	100,4
Qorauzak	785,1	101,4
Kegeyli	297,8	88,8
Qungirotd	443,2	101,3
Muynoq	224,8	103,8
Nukus tumani	360,0	93,0
Taxiatosh	375,9	116,4
Taxtakupir	682,2	100,4
Turtkul	425,3	99,5
Xujayli	708,8	101,6
Chimboy	364,9	104,0
Shumanay	428,4	95,8
Ellikqala	344,8	96,1
<b>shahar:</b>		
Nukus shahri	887,0	106,8

## O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,9 foizga o'sdi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 92,3 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 49,8 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 5,2 foizni tashkil etdi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi  
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish,  
tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: R.Sharibaev

(0371) 230-82-06